



XALQARO HUQUQDA BETARAFLIK.

Umarxo'jayev Saida'zimxon Muxtorxon o'g'li,
Nurmamatov Diyorbek Yodgor o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 1-
bosqich talabalari*

Annotatsiya: Betaraflik — davlatlarning xalqaro nizolar va harbiy-siyosiy ittifoqlardan chetda turish siyosati bo'lib, suverenitet va hududiy yaxlitlikni saqlashga qaratilgan. Ushbu maqolada betaraflikning turli shakllari, jumladan, to'liq, urush vaqtida, harbiy va an'anaviy betaraflik kabi turlari tahlil qilinadi. Betaraf davlatlar, xususan, Shveysariya va Avstriyaning betaraf siyosatining xalqaro huquqiy asoslari, gumanitar yordam ko'rsatishdagi o'rni va zamonaviy xalqaro munosabatlarda betaraflikning roli ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda betaraflik kiberxavfsizlik, ekologik xavfsizlik kabi global tahdidlar sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilishda muhim vositaga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: betaraflik, to'liq betaraflik, doimiy betaraflik, urush vaqtida betaraflik, xalqaro huquq, gumanita ryordam, Shveysariya, Avstriya, kiberxavfsizlik, ekologik xavfsizlik.

НЕЙТРАЛИТЕТ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ.

Аннотация: Нейтралитет — это политика государств по уклонению от международных конфликтов и военно-политических альянсов, направленная на сохранение суверенитета и территориальной целостности. В данной статье анализируются различные формы нейтралитета, включая полный, военный, традиционный и временной нейтралитет. Рассматриваются правовые основы нейтральной политики таких государств, как Швейцария и Австрия, а также их роль в гуманитарной помощи и значение нейтралитета в современных международных отношениях. В настоящее время нейтралитет стал важным инструментом для защиты национальных интересов в условиях глобальных угроз, таких как кибербезопасность и экологическая безопасность.

Ключевые слова: нейтралитет, полный нейтралитет, постоянный нейтралитет, военный нейтралитет, международное право, гуманитарная помощь, Швейцария, Австрия, кибербезопасность, экологическая безопасность.



NEUTRALITY IN INTERNATIONAL LAW.

Annotation: *Neutrality is a policy of states to stay clear of international conflicts and military-political alliances, aimed at preserving sovereignty and territorial integrity. This article analyzes various forms of neutrality, including complete, wartime, military, and traditional neutrality. It discusses the legal foundations of the neutrality policies of neutral states, particularly Switzerland and Austria, as well as their role in humanitarian assistance and the importance of neutrality in modern international relations. Today, neutrality has become an important tool for protecting national interests in the context of global threats such as cybersecurity and environmental security.*

Keywords: *neutrality, complete neutrality, permanent neutrality, wartime neutrality, international law, humanitarian assistance, Switzerland, Austria, cybersecurity, environmental security.*

Kirish.

Xalqaro munosabatlarda betaraflik prinsipi davlatlarning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Betaraflik – davlatlarning xalqaro nizolar va harbiy-siyosiy ittifoqlardan chetdat urish siyosati bo'lib, suverenitet va hududiy yaxlitlikni saqlashga qaratilgan. Zamonaviy xalqaro huquqda betaraflik tushunchasi yangi mazmun kasb etib, kiberxavfsizlik va ekologik xavfsizlik kabi global muammolarga ham tatbiq etilmoqda. Betaraflik — davlatning urushda va harbiy siyosiy ittifoqlarda qatnashmaslik siyosati va o'ziga xos huquqiy maqomi. Betaraflikning quyidagi turlari mavjud: eventual betaraflik (urush vaqtida) – davlatning biron bir urushda qatnashmasligi; doimiy betaraflik (1825-yilva Avstriyava Turkmaniston, 1955-yildan)—davlatning hech qachon urushni keltirib chiqaruvchi siyosat olib bormasligi; shartnomaviy betaraflik; an'anaviy betaraflik; ijobiy betaraflik—Ikkinchi jahon urushidan keying yillarda rivojlanayotgan mustaqil davlatlarning harbiy va siyosiy ittifoqlarga qo'shilmaslik siyosati. Biron bir davlatga harbiy hujum qilingan holatda ular BMT Ustaviga muvofiq yakka yoki jamoa bo'lib, o'zini himoya qilish huquqiga ega^[1].

Tahlil va natijalar. Betaraflik davlatlarga xalqaro mojarolardan chetda turish imkonini beradi, bu esa tinchlikni saqlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan, Shveysariya va Avstriya kabi betaraf davlatlar o'z tashqi siyosatlarida nizolarni hal qilishda vositachilik rolini o'ynab kelmoqda, bu esa ularga global diplomatiyada ishonchli tomon sifatida e'tibor qozonishga yordam beradi. Shu bilan



birga, xalqaro huquq betaraf davlatlarning suverenitetini hurmat qiladi. Bu degani, betaraf davlatlar boshqa davlatlar tomonidan hujum yoki siyosiy bosim ostiga olinmasligi kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Nizomiga muvofiq, har qanday davlat o'z hududini betaraf deb e'lon qilishi va shu bilan xalqaro hamjamiyatning yordami bilan o'z xavfsizligini kafolatlashga harakat qilishi mumkin. Shuningdek, betaraflik xalqaro gumanitar huquqda muhim ahamiyatga ega. Betaraf davlatlar urush paytida insonparvarlik yordamini ko'rsatishga qodir bo'ladi, chunki ular mojarolarda taraf bo'lmagani sababli gumanitar tashkilotlar va insoniy yordam dasturlarini amalga oshirishda qulay sharoit yaratadi.

Hozirgi paytda xalqaro huquqda betaraflikning o'rni o'ziga xos jihatlarga ega va global siyosiy muhitning o'zgarishlari bilan moslashib bormoqda. Betaraflik prinsipi tarixan urushlardan qochish va tinchlikni saqlash maqsadida qabul qilingan bo'lsa-da, bugungi kunda uning o'rni ko'p jihatdan yangi xavf-xatarlar va xalqaro mojarolar bilan bog'liq. Global siyosiy va iqtisodiy bloklarga bo'linish kuchaygan hozirgi davrda betaraflik ko'pincha kichik yoki o'rta darajadagi davlatlar uchun o'z milliy manfaatlarini himoya qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Katta davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat sharoitida betaraf davlatlar siyosiy va iqtisodiy aloqalarni har ikki tomon bilan muvozanatda olib boorish imkoniga ega. Bu ularga xalqaro savdo va diplomatiyada ko'proq erkinlik beradi. Zamonaviy qurolli mojarolar va kiber hujumlar kabi yangi tahdidlar sharoitida betaraflikning ahamiyati qayta ko'rib chiqilmoqda. Kiberxavfsizlik masalalarida betaraf davlatlar neytral rolni saqlab qolish bilan birga, xalqaro xavfsizlik tizimida ishonchli hamkor bo'lib qolmoqda. Masalan, Shveysariya o'zining betaraflik maqomi tufayli xalqaro muzokaralar va kiberxavfsizlik bo'yicha forumlarda ishtirok etib, vositachi sifatida faol rol o'ynayapti. Bundan tashqari, xalqaro huquqda betaraflik prinsipining yangi shakllari shakllanmoqda. Masalan, ekologik xavfsizlik va global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda betaraf davlatlar o'zlarining muhim pozitsiyalarini ko'rsata olmoqda. Ular harbiy bloklarga qo'shilmasdan, xalqaro iqlim va atrof-muhit bo'yicha kelishuvlarda faol ishtirok etmoqda. Bu holat betaraflikni faqat urush va tinchlik masalalari bilan cheklamay, kengroq global muammolarga qarshi kurashda ham samarali vosita sifatida foydalanish imkonini bermoqda.

Agar davlat o'z betarfligini e'lon qilsa, bu uning boshqa davlatlar o'rtasidagi mojaroda ishtirok etmasligini bildiradi. Betaraflik huquqi qoidalari o'ziga xos huquq va majburiyatlardan tashkil topadi, bu jang qilayotgan davlat va betaraf davlat o'rtasidagi munosabatlar bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda "harbiy mojaroda qatnashmaydigan davlatlar" haqida ham gap boradi, ular barcha shartlarga javob bermaydi va bu maqomga da'vogar bo'lmaydi. Lekin gumanitar huquq maqsadlari





uchun ushbu farq ahamiyatli emas. Shuningdek, gumanitar yordam bilan bog'liq shartnomalarda betaraf davlatlar yodga olingan. Masalan, yarador harbiy asirlar betaraf davlatning kasalxonalariga yuborilishi mumkin. Birinchidan, harbiy harakatlar hududidan evakuatsiya qilingan ota-onasiz bolalar betaraf davlat tomonidan qabul qilinishi mumkin; Ikkinchidan, betaraflikka taaluqli Konvensiyalarda, shuningdek himoya ostiga olingan shaxslarning evakuatsiyasi yoki repatriatsiyasi bilan bog'liqliklar qayd etilgan. Yordamga muhtoj aholiga betaraf davlatlar o'z hududidan turib yordam ko'rsatishiga ruxsat beriladi; Bu turdagi operatsiyalar betaraflikning buzilishi sifatida qaralmaydi. Va nihoyat, barcha betaraf davlatlar yoki mojaroda ishtirok etmaydigan davlatlar homiy davlat vazifasini bajarishi mumkin, shuningdek, ular qurolli mojaro davrida gumanitar huquqni saqlash borasida muhim o'rin egallaydi^[5].

Urush vaqtida betaraflikning xalqaro huquqiy va siyosiy tamoyillari, uni amalga oshirish shakllari va turlari muhim xalqaro manbalarda aniq belgilab qo'yilgan. Betaraflik davlatlarning urushga qo'shilmaslik huquqini o'zida aks ettiradi va xalqaro munosabatlarda barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Urush vaqtida betaraflikning huquqiy va siyosiy tahlillari xalqaro hujjatlar va tarixiy tajribalar orqali tushuntiriladi. Betaraf davlatlar urushga bevosita aralashmaslik huquqiga ega bo'lsa-da, xalqaro tizimda ularga qaratilgan majburiyatlar mavjud. Gaaga konvensiyalari va BMT Nizomi kabi xalqaro hujjatlar bu borada asosiy me'zonlarni belgilab beradi. Shu bilan birga, davlatlarning betarafligi strategik, iqtisodiy va gumanitar jihatlarda turlicha amalda bo'lgan, bu esa turli davrlardagi xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatgan.

To'liq betaraflik, ya'ni davlat betarafligilining harakatlari qurolli betaraflikdek alohida voqealar yoki faktlar bilan bog'lanmagan. Xalqaro huquqda to'liq betaraf davlat xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi kerak. Bu maqom davlatning harbiy ittifoqlarga qo'shilmasligi, harbiy bloklarga a'zo bo'lmasligi va o'z hududida xorijiy harbiy bazalarni joylashtirmasligini anglatadi^[4]. To'liq betaraf davlat boshqa davlatlarning ichki va tashqi ishlariga aralashmasdan, o'z mustaqilligini va suverenitetini saqlab qolishadi. Bu davlatlar urushga yoki harbiy harakatlarga o'z qurolli kuchlarini jalb qilmaydi va har qanday qurolli nizoda taraf bo'lib ishtirok etmaydi. Shveysariya, Avstriya, Malta, Laos va Turkmaniston hozirgi kunda to'liq betaraf hisoblanadi.

Harbiy betaraflik odatda ma'lum bir hududda harbiy harakatlar o'rin egallaganda vujudga kelishi mumkin. Bu holda ushbu mintaqadagi davlat harbiy betaraflikni e'lon qilishi mumkin, ya'ni bu betaraflikning harakati yuzaga kelgan mojaro davom etish vaqti bilan cheklangan bo'ladi. Urushda ishtirok etayotgan qolgan ishtirokchilar





ushbu davlatning harbiy betarafligini hurmat qilishlari lozim. Harbiy betaraflikning doimiy betaraflikdan farqi shundaki, harbiy betaraflikka ega bo'lgan davlat harbiy harakatlarning har qanday bosqichida har qanday davlat tomonida turib harbiy harakatlarga qo'shilishi mumkin, doimiy betaraflikka ega bo'lgan davlatlar bunday harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega emaslar. Shuningdek, harbiy betaraf va harbiy harakatlarda ishtirok etmaydigan davlatlar tushunchalarini farq qilish kerak. Bular orasidagi farq shundaki, harbiy betaraflikka ega bo'lgan davlatlar alohida majburiyatlarga hamda qurolli mojaroda ishtirok etayotgan davlatlarga nisbatan bir qator huquqlarga ega. Qurolli mojaroda ishtirok etmayotgan davlatlar qurolli mojaroda qatnashayotgan hech bir davlatga nisbatan hech qanday majburiyatga ega emas. Ularning maqomi noaniq, ya'ni ular har qanday vaqtda o'z maqomini o'zgartirishlari mumkin^[2].

An'anaviy betaraflik davlatlarga xalqaro nizolar davrida mustaqillikni saqlash va o'z hududiy yaxlitligini himoya qilishga imkon beradi. Gaaga konventsionalari va xalqaro huquqiy me'yorlar bu turdagi betaraflikning asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Tarixiy tajribalar – xususan, Shveysariya, Avstriya va boshqa davlatlarning betarafligi – an'anaviy betaraflikning qanday amalga oshirilishini ko'rsatib beradi^[3]. Shu bilan birga, bugungi kunda an'anaviy betaraflik tushunchasi xalqaro siyosatda yangi murakkabliklar bilan yuzlashmoqda. Texnologik rivojlanish, xalqaro terrorizm va gibril urushlar kabi zamonaviy tahdidlar an'anaviy betaraf davlatlar uchun qiyinchiliklar yaratmoqda. Ammo Shveysariya, Avstriyava Irlandiya kabi davlatlar o'zlarining an'anaviy betaraf siyosatlarini davom ettirishda barqarorlikni saqlashga intilmoqda.

Xulosa. Betaraf davlatlar nizolarda neytral bo'lib, vositachilik qilish va gumanitar yordam ko'rsatishda yetakchi rol o'ynaydi. Shveysariya va Avstriya kabi mamlakatlar doimiy betaraflik maqomiga ega bo'lib, urushlardan tashqarida turish orqali xalqaro diplomatiyada ishonchli tomon sifatida e'tibor qozonib kelmoqda. Xalqaro huquq betaraf davlatlarning hududiy yaxlitligi va suverenitetini hurmat qiladi, bu esa ularga mojarolardan chetda turib tinchlikni ta'minlash imkonini beradi. Davlatlar BMT Nizomiga muvofiq o'zlarini betaraf deb e'lon qilishlari va xalqaro hamjamiyat ko'magida o'z xavfsizliklarini kafolatlashlari mumkin. Shuningdek, betarafli Kurush davrida insonparvarlik yordamini ko'rsatishga imkon beradi, chunki betaraf davlatlar mojarolarga aralashmaganligi sababli gumanitar operatsiyalar uchun qulay muhit yaratadi. Bugungi kunda betaraflik global siyosiy va iqtisodiy bloklarga bo'linish kuchaygan sharoitda milliy manfaatlarni himoya qilishning samarali usuliga aylanmoqda. Betaraf davlatlar kiberxavfsizlik va ekologik xavfsizlik kabi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda ham ishonchli hamkor sifatida faol ishtirok etmoqda.



Bu ularga xalqaro diplomatiya va savdoda ko'proq erkinlik beradi. Shu bilan birga, xalqaro huquqda betaraflikning roli yangi ko'rinishlar kasb etmoqda va global muammolarni hal qilishda ham muhim vositaga aylanmoqda.

REFERENCES:

1. Hoffmann, S. (1996). "The Security of Neutrality: A Comparative Study." *International Security*, 21(4), 102-133.
 2. Hoffmann, M. (2012). "Neutrality in International Law: The Case of Switzerland." *Swiss Review of International Law*, 1(1), 25-40.
 3. Ochilov B.E., Odilqoriyev X.T. (2007). *Xalqaroommaviyhuquq: Oliy'o'quvyurtlariuchundarslik*. Toshkent: Adolat.
 4. Shuhrat K. Nizamov — "XalqaroHuquq" (International Law) darsligi.
 5. wikipedia.org
-